

## O`ZBEKISTON TIBBIYOTI TARIXIDAN

**Bekto'rayeva U. N**

*Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O`zbekiston hududida tibbiyot paydo bo`la boshlagani , tibbiyotda kimlar bu sohada ishlagani , olimlarning tibbiyot sohasidagi asarlari masalalari ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** Anahita, Avesto, Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, Ismoil Jurjoni, Xorazmshoh xazinasi, Xastaliklarni aniqlash usullari, Ibn Sino haqida so`z, Tibbiyotning mohiyati, Dorilar xazinasi, Umar Chag`miniy, Qonuncha.

Ko`pchilik tibbiyot tarixchilarining fikricha, tabobat ibtidoiy jamoa davrining matriarxat bosqichida shakllangan. Birinchi “tabiblar” ayollar b`olganlar. Tarixiy dalillar bu fikrni tasdiqlaydi.

O`rta Osiyoda Anahita ismli ayol odamlar hayoti va sog`lig`ining homiysi hisoblangan. Bizgacha yetib kelgan bir afsonada uning ismi “Bibi nushkul kushod” ya`ni mushkulni ochuvchi, uni yengillashtiruvchi pari, deb atalgan.Qadimgi ajdodlarimiz sog`liq homiysi bo`lgan bu go`zal parining ramziy haykalini yasab, unga sajda qilganlar. O`zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida bunday haykallar ko`p topilgan. Qadimgi zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da Ardvisura – Anahita homilador ayolning homiysidir, deb yozilgan.[1.]

O`rta asrlarga kelib tibbiyot fani rivojlana boshladi.Bu davrda ko`plab joylarda kaslxonalar ochila boshlandi. Shunday kasalxonalar qadimgi Bog`dod, Ray, Damashq Samarqand, Marv, Shosh (Toshkent) shaharlarida dastlabki kasalxonalar ochilgan edi.[2]

Sharq mamlakatlarda o`rta asrlardayoq hakimlar alohida sohalar bo`yicha ixtisoslashgan edilar. Masalan, tabiblar orasida ichki kasalliklarni davolovchilar, jarrohlar, kahollar (ko`z kasalliklari mutaxasislari), teri kasalliklari mutahasislari, quloq vq tomoq kasalliklari mutaxasislari, rishtani chiqarib oluvchilar va qon oluvchilar b`olgan

O`rta asrlarda tibbiyot 2 tushunchaga (mijozlar va ratublar tushunchasiga) asoslangan. Mijoz tushunchasi samoviy unsur(elementlar) haqidagi ta`limot.Rubatlar esa (qon, safro, savdo, flegma) agar insonda shu muvozanat bor bo`lsa sog`lom, yo`q bo`lsa kasallik kelib chiqadi deb faraz qilganlar.[3]

Vatanimizda tibbiyot sohasi bo`yicha X-XI asrlarda Abu Ali ibn Sino, XII asrda Ismoil Jurjoni, va XII-XIII asrda yana bir tibbiyot olimi Umar Chag`miniyalar katta muvaqqiyatga erishdi.[4]

Abu Ali ibn Sino o`zining ilmiy qarashlarini bilan hurmat qozonib, xirurgiya faniga beqiyos hissa qo`shtigan.Ibn Sinoning “Tib qonunlari” ikkinchi tuzatilgan nashri 1981- yilda qayta chop etiladi. Abu Ali ibn Sinoning xirurgiya sohasidagi xizmatlari juda katta ahamiyatga ega bo`lib, “Tib qonunlari” asarining III va IV kitoblari xirurgik kasalliklarni davolashg bag`ishlangan. “Tib qonunlari” ning III kitobidagi paragroflarda ayrim xirurgik kasalliklarning diganostikasi va xirurgiyasi, ularni davolash usullari haqida ma`lumotlar beradi. “Tib qonunlari” ning IV kitobida esa o`sma kasalliklari va mutasillikning buzilishi kabi dolzarb mavzular yoritiladi. Shuningdek shikastlanishlar va yallig`lanishlar mohiyati, ularni davoilashda tadbiq etiladigan davo usullari mufassal keltirilgan.[5]

Ismoil Jurjoniy Jurjon shahida tug`ilgan. Jurjoniy ham tibbiyotga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning mashhur asarlari “Xorazmshoh xazinasi”, “Xastaliklarni aniqlash usullari”, “Ibn Sino haqida so`z”, “Tibbiyotning mohiyati”, “Dorilar xazinasi”dir.

“Xorazmshoh xazinasi” eng mashhur va yirik asarlaridan biridir. Bu asarda muallif odam antomiyasi va fizologiyasidan boshlab kasalliklarni aniqlash va ularni davolashgacha barcha muhim masalalarni bayon etgan.Kitobning har bir qismi tibbiyotning ayrim sohalariga bag`ishlangan.Kitobda muallif kasalliklarning mohiyati va tibbiyotning vazifalari haqidagi o`z fikrlarini bayon etgan.Jurjoniy o`zining bu asarida tibbiyotning asosiy vazifasiga to`xtalib, birinchi galda kishilarning salomatligini saqlash tadbirlarini ishlab chiqish zarur , deydi. Agar kasallik paydo bo`lgan bo`lsa, uni davolash kerakligini ham ko`rsatadi. Salomatlikni saqlash uchun kishi sog`ligiga salbiy ta`sir etuvchi barcha omillarni bartaraf etish zarurligini uqtiradi. Jurjoniyning salomatlik, kasallik va tibbiyotning vazifalari haqidagi fikrlari Ibn Sinoning shu haqdagi fikrlariga tamomila mos keladi. Bu jihatdan Jurjoninyning “Xorazmshoh xazinasi” Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga yaqindir.[6]

Umar Chag`miniy Buxoroda Chag`min qishlog`ida tug`ilgan.Chag`miniy tibbiyotga qiziqqan va bu sohada ko`zga ko`ringan mutahasis bo`lib chiqqan.Uning asosiy kitobi “Qonuncha” deb ataladi. Chag`miniy asaosan ichki kasalliklarni davolash bilan shug`ullangan bo`lsa kerak, chunki asarda jarrohlik masalalariga juda kam o`rin berilgan. Chag`miniy o`sha davrda naturfalsafa nazaryasiga asoslangan. Chunonchi, organism to`rt samoviy elementlardan tashkil topgan deydi. Bu kitob tabiblar orasida keng tarqaldi va undan qo`llanma sifatida foydalanadilar.[7]

Tibbiyot sohasining rivojlanishi tibbiyotga oid kasalliklarning davolanishi , ko`p kasalliklarga davo toppish imkonini berdi. Buning natijasida insonlarning umir ko`rishi uzaya boshladi. Tibbiyotga oid maktablar, oliy o`quv yurtlari shifokorlar chiqara boshladi. Insonlarda tibbiyot haqida tushuncha paydo bo`ldi. Insonlar endi oddiy kasalliklardan o`lib ketish darajasi ancha kamaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tibbiyot tarixi Asadulla Abdulla o`g`li Qodirov 16- bet
- 2 Tibbiyot tarixi Asadulla Abdulla o`g`li Qodirov 54- bet
3. Tibbiyot tarixi Asadulla Abdulla o`g`li Qodirov 55- bet
4. Tibbiyot tarixi O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi modeli 13- bet
5. Tibbiyot tarixi O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi modeli 14- bet
6. Tibbiyot tarixi O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi modeli 41- bet
7. Tibbiyot tarixi O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi modeli 43- bet
8. Тўйчибоев, Б. Б. (2024). ЎРТА ОСИЁ ҚОЯТОШ СУРАТЛАРИДАГИ ОТ ТАСВИРЛАРИ СЕМАНТИКАСИННИГ ЎРГАНИЛИШИ ХУСУСИДА. *Academic research in educational sciences*, 5(2), 702-707.
9. Тўйчибоев, Б. (2024). ПЕТРОГЛИФЛАРНИНГ ТЕХНОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР. *Muarrix*, 2(1).
10. Туйчибаев, Б. (2023). Қоятош тасвирлари тематикаси хусусида. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 50-53.
11. Туйчибоев, Б. (2022). Қоятош суратларини ўрганиш ва сақлашда рақамли технологияларнинг ўрни. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 19-24.